


## X. KICHIK TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularni erkin faoliyat yuritishi uchun qulay sharoit va muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar davomida 2022- yil 1- oktabr holatiga ro‘yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 32 849 tani tashkil qildi. (2022- yil 1-iyulga nisbatan 104,8 % ga ko‘pdir).

### Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining 2022- yil 1- oktabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi




Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo tarmog‘ida (jami tashkil etilgan subyektlarning 37,6 %), sanoat sohasida (27,2 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (13,2 %) va qurilishda (7,8 %) tashkil etilgan.

## Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>4 882</b>	<b>4 108</b>
Namangan shahar	1284	1278
Mingbuloq	277	168
Kosonsoy	261	214
Namangan	322	256
Norin	318	275
Pop	324	212
To'raqo'rg'on	371	241
Uychi	350	243
Uchqo'rg'on	348	347
Chortoq	331	307
Chust	443	317
Yangiqo'rg'on	253	250

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Namangan shahrida – 1278 ta, Uchqo'rg'on tumanida – 347 ta, Chust tumani – 317 ta, Chortoq tumanida – 307 ta, Norin tumanida – 275 ta, Namangan tumani – 256 ta, Yangiqo'rg'on tumani – 250 ta, Uychi, To'raqo'rg'on, Kosonsoy, va Pop tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich Mingbuloq tumanida 168 tani tashkil etdi.

**2022- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %da**




2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulushi Namangan shahrida – 31,1 %, Uchqurg'on tumanida – 8,4 %, Chust tumanida – 7,7 %, Chortoq tumanida – 7,5 %, Norin tumanida -6,7 %, Namangan tumanida – 6,2 % va Yangiqo'rg'on tumanida – 6,1 % tashkil etdi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 72,4 % (2021- yil yanvar-sentabr oylarida 74,8 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan 186,7 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 42,8 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, 363,8 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 72,3 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushi

(yanvar-sentabr oylari holatiga, %da)



## Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi (2022- yil yanvar-sentabr)

Iqtisodiy faoliyat turlari	Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi, mlrd. so'm	Jami hajmga nisbatan ulushi, % da
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	16 979,5	90,7
Sanoat	4 704,3	65,1
Qurilish	4 242,8	89,7
Chakana savdo	11 948,2	91,5
Yuk tashish, mln. tonna	20,1	91,6
Yo'lovchi tashish, mln. kishi	317,2	97,4

**2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning  
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,  
(%da)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiyalar
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>44,6</b>	<b>89,7</b>	<b>67,3</b>	<b>63,4</b>
Namangan shahar	53,6	82,5	47,3	54,1
Mingbuloq	52,1	93,3	81,5	39,0
Kosonsoy	39,5	100,0	83,0	74,6
Namangan tuman	64,6	99,4	83,6	73,4
Norin	48,7	100,0	82,7	84,3
Pop	59,9	55,5	73,7	80,5
To'raqo'rg'on	10,2	100,0	74,5	67,5
Uychi	73,4	93,3	84,2	82,8
Uchqo'rg'on	17,4	92,3	80,4	64,9
Chortoq	100,0	100,0	80,0	68,6
Chust	39,6	98,8	78,3	45,6
Yangiqo'rg'on	100,0	100,0	83,8	95,4

Hududlar bo'yicha **sanoat** sohasining yuqori ulushini Chortoq, va Yangiqo'rg'on tumanlari (100,0 %) hamda Uychi (73,4 %) tumanlari tashkil etdi.

**Qurilishda** – Kosonsoy, Norin, Yangiqo'rg'on, To'raqo'rg'on, Chortoq tumani 100,0 %, Uychi tumanida 99,3 % tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasida** – Uychi (84,2 %), Yangiqo'rg'on (83,8 %), Namangan t (83,6 %), Kosonsoy (83,0 %) Norin (82,7 %), tumanlari tashkil etdi.

**Investitsiyada** – Yangiqo'rg'on (95,4 %), Norin (84,3 %), Uychi (82,8 %), Pop (80,5 %) , Kosonsoy (74,6 %) tumanlarida yuqori ulushlarni tashkil etdi.